

O'ZBEKISTON YASHIL IQTISODIYOTIGA O'TISHIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNING O'RNI

Mamajonov Lochinbek

JIDU "Xalqaro iqtisodiyot va menejment"
fakulteti 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida xorijiy investitsiyalarning tutgan o'rni tahlil qilinadi. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi, uning asosiy tamoyillari va barqaror rivojlanishdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Shuningdek, xorijiy investitsiyalar orqali ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, energiya samaradorligini oshirish hamda atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish imkoniyatlari yoritiladi. Maqolada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, xorijiy investorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar va mavjud muammolar ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi, Masdar, fotoelektr

Abstract: This article analyzes the role of foreign investments in Uzbekistan's transition to a green economy. It examines the concept of a green economy, its key principles, and its importance for sustainable development. The article highlights opportunities for introducing environmentally friendly technologies, increasing energy efficiency, and reducing environmental impact through foreign investments. It also discusses the ongoing reforms in Uzbekistan, the conditions created for foreign investors, and existing challenges.

Keywords: Green Economy Transition Strategy, Masdar, Photovoltaic

Аннотация: В данной статье анализируется роль иностранных инвестиций в переходе Республики Узбекистан к "зелёной" экономике. Рассматриваются понятие "зелёной" экономики, её основные принципы и значение для устойчивого развития. Особое внимание уделяется возможностям внедрения экологически чистых технологий, повышения энергоэффективности и снижения негативного воздействия на окружающую среду за счёт иностранных инвестиций. Также рассматриваются проводимые в Узбекистане реформы, условия для иностранных инвесторов и существующие проблемы.

Ключевые слова: Стратегия перехода к зеленой экономике, Масдар, Фотоэлектрический

Kirish: So'nggi yillarda iqlim o'zgarishlari global xavfsizlik, barqaror rivojlanish va inson salomatligiga tahdid soluvchi omillardan biri sifatida dunyo hamjamiyatining diqqat markazida turibdi. Iqlim muammolarining kuchayishi, ekologik muvozanatning buzilishi, tabiiy resurslarning cheklangani va havo

ifloslanishi, bularning barchasi davlatlarni o'z iqtisodiy va ekologik siyosatlarini tubdan qayta ko'rib chiqishga majbur qilmoqda. Shu bois, iqtisodiyotni "yashillashtirish", ya'ni "yashil" iqtisodiyot tamoyillariga o'tish bugun har bir mamlakat uchun ustuvor strategik yo'nalishga aylanmoqda. O'zbekiston ham bu jarayonda faol ishtirok etmoqda. 2019-yilda qabul qilingan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi", shuningdek, 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi, "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi qonun, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha yashil iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari" haqidagi qarori mazkur sohadagi muhim bosqichlardan hisoblanadi. Shuningdek, Prezidentimizning 2021-yilda Janubiy Koreyada bo'lib o'tgan "Yashil o'sish va global maqsadlar uchun hamkorlik — 2030" ikkinchi xalqaro sammitida, 2023-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida, hamda "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" oliy darajadagi sammitida ekologik muammolar, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va yashil energetika bo'yicha xalqaro hamkorlik masalalari alohida o'rin oldi. Bu boradagi islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida xorijiy investitsiyalarning o'rni beqiyosdir. Jumladan, BAAning "Masdar"¹ kompaniyasi bilan hamkorlikda Navoiy viloyatida 500 MVt quvvatga ega shamol elektr stansiyasining qurilishi, 2021-yilda Karmana tumanida ishga tushirilgan 100 MVt quyosh fotoelektr stansiyasi, shuningdek, Toshkent, Buxoro va Xorazm viloyatlarida 700 million dollardan ortiq xorijiy investitsiyalar hisobiga barpo etilgan 5 ta elektr stansiyasi buning yaqqol isbotidir.² Yashil iqtisodiyotga o'tishda xorijiy investitsiyalar faqat texnologiyalar emas, balki zamonaviy boshqaruv, ekologik standartlar va global tajriba olib kirilishi nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida xorijiy investitsiyalar muhim rol o'ynaydi. Quyida ushbu mavzuni **SWOT** tahlil usullari orqali batafsil ko'rib chiqamiz. SWOT tahlili Kuchli tomonlar (**Strengths**) **1.** O'zbekiston 2019–2030-yillar uchun yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini qabul qilgan. Bu strategiya qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan. **2.** Mamlakatda quyosh va shamol energiyasidan foydalanish uchun katta salohiyat mavjud. Quyoshli kunlar soni yiliga o'rtacha 320 kunni tashkil etadi. **3.** 2023-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda 17 659 ta xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar mavjud bo'lib, bu 2019-yilga nisbatan 1,8 barobarga oshgan.³ Zaif tomonlari (**Weaknesses**) **1.** O'zbekistonda korruptsiya muammosi mavjud bo'lib, bu xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda to'siq bo'lishi mumkin. **2.** Ba'zi investitsiya

¹ BAA <https://masdar.ae/>

² Yashil iqtisodiyot <https://parliament.gov.uz/>

³ Xorijiy korxonlar <https://invexi.org/uz/press/>

loyihalarining o'z vaqtida va samarali amalga oshirilmasligi kuzatilmoqda.⁴ Imkoniyatlar (**Opportunities**) 1. O'zbekistonning Parij bitimiga qo'shilishi va xalqaro ekologik tashabbuslarda ishtiroki yangi investitsiya imkoniyatlarini ochadi. 2. Yashil texnologiyalarni joriy etish orqali yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin. Tahdidlar (**Threats**) Xalqaro iqtisodiy inqirozlar yoki siyosiy beqarorlik investitsiya oqimlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek mintaqadagi boshqa davlatlar bilan raqobat, ayniqsa, yashil texnologiyalar sohasida, investitsiyalarni jalb qilishda muhim omil bo'lishi mumkin.

PESTEEL tahlil, Siyosiy (**Political**) O'zbekistonda siyosiy barqarorlik mavjud bo'lib, bu xorijiy investorlar uchun muhim omil hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot bo'yicha davlat dasturlari, strategiyalar va hukumat qarorlari mavjud (masalan, 2019–2030 yillarga mo'ljallangan Yashil iqtisodiyot strategiyasi). Xalqaro hamkorlik: O'zbekiston Parij iqlim bitimiga qo'shilgan, shuningdek, BMTning iqlim o'zgarishiga qarshi tashabbuslarida faol ishtirok etadi. Iqtisodiy (**Economic**) 2022–2026 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturlariga muvofiq, O'zbekiston yashil texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya va suv resurslarini boshqarish sohalarida xorijiy kapitalni faol jalb etmoqda. Yashil iqtisodiyot hali to'liq shakllanmaganligi sababli, investorlar uchun yangi bozor segmentlarini egallash imkoniyati mavjud.⁵ Ijtimoiy (**Social**) Atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli munosabat shakllanmoqda. Ekologik toza mahsulotlar, yashil energiyadan foydalanishga bo'lgan talab ortmoqda. Yangi ish o'rinlari: Yashil iqtisodiyotda, xususan, qayta tiklanuvchi energiya va chiqindilarni qayta ishlash sohalarida minglab ish o'rinlari yaratilishi kutilmoqda. Texnologik (**Technological**) Quyosh panellari, shamol turbinalari, energiya tejovchi texnologiyalar kabi yangi texnologiyalar joriy qilinmoqda. Germaniya, Xitoy, Janubiy Koreya va boshqa davlatlar bilan texnologik almashinuv kuchaymoqda. Ekologik (**Environmental**) Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi — tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ifloslanishni kamaytirish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish. Bu ekologik tahdidlar mamlakatda yashil texnologiyalarni tezroq joriy etishni talab qilmoqda. Huquqiy (**Legal**) Investitsiyalarni himoya qilish: O'zbekiston bir nechta ikki tomonlama investitsiya bitimlariga ega bo'lib, xorijiy investorlar huquqlarini kafolatlaydi. Atrof-muhitni muhofaza qilishga doir qonunlar, ekologik ekspertiza talablari va “yashil standartlar” ishlab chiqilmoqda va joriy qilinmoqda.⁶

Xulosa:

Umumiy qilib aytganda, yashil iqtisodiyotga o'tish bugungi kunda barcha mamlakatlarning asosiy maqsadi va missiyasi hisoblanadi. Shu sababli, O'zbekiston ham bu borada bir qator islohotlarni amalga oshirmoqda. Ushbu maqolani o'qib, bu

⁴ Samarali amalga oshirish chora tadbirlari <https://lex.uz/uz/docs/>

⁵ Xorijiy korxonlarning o'rni <https://yuz.uz/>

⁶ Investitsiyalarni jalb qilish <https://ilmiybaza.uz/>

jarayonning dolzarbligini anglagan bo'lsangiz kerak. Ayni paytda ekologiya masalasi O'zbekistonda eng muhim va dolzarb masalalardan biri sanaladi. Prezidentimiz ham bu muammoni chuqur anglab, 2019–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyani ishlab chiqdi va aynan shu strategiya asosida izchil harakatlar olib borilmoqda. Bugunga qadar bir qancha ijobiy natijalarga erishdik. Biroq, shunga qaramasdan, biz yana-da ko'proq xorijiy investorlarni jalb qilishimiz, ularga qulay sharoitlar yaratishimiz zarur. Chunki xorijiy investitsiyalar bizga nafaqat moliyaviy, balki texnologik, boshqaruv va ekologik tajriba olib kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Elektron manbalar:

1. <https://masdar.ae/>
2. <https://parliament.gov.uz/>
3. <https://invexi.org/uz/press/>
4. <https://lex.uz/uz/docs/>
5. <https://yuz.uz/>
6. <https://ilmiybaza.uz/>